



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSIQA O'QITISHNING INTERFAOL METODLARIDAN FOYDALANISH

**Islom Ilxom o'g'li Axtamov**

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida musiqa madaniyati fanini o'qitishda interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos pedagogik hamda psixologik xususiyatlari, musiqa san'ati orqali yosh avlodni yuksak insoniy tuyg'ular ruhida tarbiyalash masalalari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** usul, uslub, interfaol ta'lim texnologiyalari, musiqa madaniyati, musiqa pedagogikasi, musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqa savodi

## USING INTERACTIVE METHODS OF TEACHING MUSIC IN PRIMARY CLASSES

Akhtamov, Islom Ilkhom o'g'li

Teacher of the Institute of psychology and foreign languages of Bukhara

**Annotation:** The article discusses the specific pedagogical and psychological features of the use of interactive educational technologies when teaching the subject of musical culture in the primary grades of secondary schools, the issues of educating the younger generation through the art of music in the spirit of high human feelings.

**Key words:** method, style, interactive educational technologies, musical culture, music pedagogy, listening to music, singing, musical literacy.

Musiqa insonning axloqiy, hissiy va estetik sohalarini birlashtiradi. Musiqa hissiyotlar tilidir. (V.A. Suxomlinskiy)

San'at turlari ichida musiqa san'ati ifoda vositalarining go'zalligi va boyligi bilan alohida ajralib turadi. Musiqa xalqlar va elatlarni bir-biriga bog'lovchi, kishi estetik didini tarbiyalovchi hamda ma'naviy dunyosini boyituvchi mo'jizaviy vositadir. Musiqa bu eng samarali tarbiya vositalaridan biri hisoblanadi. Bola ilk yoshidan boshlab ona allasi orqali mehr-muhabbat, yurtiga sadoqat kabi tuyg'ularni his eta boshlaydi. Musiqa



ta'limi va tarbiyasining asosiy maqsadi o'quvchi yoshlarni milliy va umumbashariy musiqa merosiga vorislik qila oladigan komil inson qilib tarbiyalashdan iborat. Musiqa ta'limi va tarbiyasini milliy musiqiy merosimiz asosida hamda jahonning rivojlangan mamlakatlari andozasida qayta ko'rib chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xususan, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi" qarorning imzolanishi musiqa ta'limining kelajakdagi maqsad va vazifalarini belgilab berdi. Mazkur qarorga ko'ra, "umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o'rgatiladi hamda bu haqda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjatlari (shahodatnoma)ga tegishli qayd kiritiladi. Musiqa madaniyati fani o'qituvchilari esa milliy cholg'ulardan kamida bittasini, 2023-2024-o'quv yilidan boshlab esa kamida uchta chala olish mahoratiga ega bo'lish majburiy hisoblanadi. Ularga asosiy ish joyida ish haqini saqlab qolgan holda, musiqa fanidan dars o'tish va to'garak mashg'ulotlarini olib borishga ruxsat beriladi. Musiqa darslarida "Hayotimga hamrohdir cholg'u" shiori ostida "cholg'u ijrochiligi" mashg'ulotlari yo'lga qo'yiladi. Maktablarni notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi".

Musiqiy ta'lim – tarbiya maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda maktab ostonasidan boshlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga musiqiy ta'lim – tarbiya berish musiqa o'qituvchisidan o'ziga xos psixologik, pedagogik va kasbiy bilim, ko'nikma hamda malakalarning mujassam bo'lishini talab etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali endigina musiqaning go'zal dunyosini hissiy-emotsional jihatdan idrok eta boshlaydilar hamda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishlari ortib boradi. Bu jarayonda musiqa o'qituvchisining roli va mas'uliyati beqiyosdir.

Musiqiy ta'lim – tarbiya jarayonida musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyatga tayyorligi, uning metodik bilim va mahorati alohida ahamiyatga ega. "Metodika» so'zi grekcha so'z bolib, "tadqiqot yo'li", "bilish usuli» degan ma'noni anglatadi. Musiqa o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib topishida qo'llangan ish uslublari tushuniladi. Musiqa o'qitish metodlarini quyidagi umumiy turlari mavjud.

1. Musiqa o'qitishning og'zaki metodi.
2. Ko'rgazmali o'qitish metodi.
3. Amaliy o'qitish metodi.
4. O'yin metodi.
5. Taqqoslash metodi.
6. Musiqiy o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash metodi.





Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlarga, innovatsion va axborot texnologiyalarga, multimedialarga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Musiqa ta'limida an'anaviy metodlar bilan birgalikda noan'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga va o'quvchilarning darsga bo'lgan ishtiyoqini ortishiga xizmat qiladi. "Interfaol" metod deganda biz jamoa bo'lib fikrlash degan ma'noni tushunamiz. "An'anaviy" o'qitish metodlaridan farqli "interfaol" metodlarda o'qituvchi va o'quvchilarning har tomonlama faolligi, jamoa bo'lib fikrlash, mustaqil ta'lim ko'nikmalarining shakllanishini kuzatishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darsi asosan beshta faoliyat turidan tuziladi:


1. Xor bo'lib kuylash.
2. Musiqa savodi.
3. Musiqa tinglash.
4. Musiqaga mos harakatlarni bajarish.
5. Bolalar cholg'u asboblariida jor bo'lish.

Ushbu faoliyatlarning har biriga mos o'qitish metodlarini tanlash va dars davomida samarali foydalanish musiqa o'qituvchisining pedagogik mahoratiga, kasbiy tayyorgarligiga va tajribasiga bog'liqdir.

Har bir sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, xarakteri, psixologik hamda fiziologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda "interfaol" metodlarni tanlashga ijodiy yondashish, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan hamda ilmiy adabiyotlardan foydalanish musiqa o'qituvchisining eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Musiqa mashg'ulotlari davomida quyidagi interfaol metodlardan (jamo bo'lib ishlash) foydalanish mumkin:

"Klaster", "Bumerang", "Aqliy hujum", "Veer", "Blits o'yin", "Zig-zag", "Charxpalak".

"Klaster" texnologiyasi bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga qaratilgan bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat beradi. Ushbu metod orqali o'quvchi yangi o'rganilgan bilimlar va ma'lumotlarni dastlab xotirada qayta tiklash hamda tizimlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Misol uchun 2- sinfda "O'zbek xalq cholg'ulari" mavzusida quyidagicha klaster tuzish mumkin:



Ushbu klaster orqali o'quvchilar o'zbek xalq cholg'u asboblari haqida umumiy tushunchalarga ega bo'ladilar. Ammo cholg'u asboblarning tovush tembrlari qanday sadolanishini klaster orqali tushuntirish birmuncha qiyinchilik tug'diradi. Bunda musiqa o'qituvchisi Microsoft PowerPoint dasturi orqali har bir cholg'u asbobining ovozi audio fayl shaklida rasmi ustiga joylashtirsa, o'quvchining cholg'u asbobi tembrini ham tinglab to'laqonli taassurot olishiga yordam beradi.

“Skarabey” interfaol texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifoda etish mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash,



o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U ayni paytda turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

Skarabey texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi:

- boshida o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida ("Aqliy hujum")
- mavzuni o'rganish jarayonida – uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish;
- Oxirida – olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

Boshlang'ich sinflarda musiqa savodi faoliyatida "aqliy hujum" texnologiyasidan foydalanish o'tilgan mavzuni takrorlash, o'rganilgan yangi mavzuni mustahkamlash bilan birga o'quvchilarni tez va aniq fikrlash, dars materialini tahlil qilishga o'rgatadi.

Shunday qilib, musiqa madaniyati darslarida ta'limning interfaol metodlaridan unumli foydalanish birinchidan, o'quvchilarning musiqiy o'quv materiallariga qiziqishini kuchaytirib, o'quv-biluv faoliyatlarini aktivlashtiradi; ikkinchidan, ijodiy fikrlashga, musiqa asarlari haqida munosabat bildirishga, ularni tahlil etishga intilish shakllanadi.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati :

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son, „Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” <https://lex.uz/uz/docs/-5849580>
- 2.Sharipova G., Xodjayeva Z. “Musika o'qitish metodikasi” T., 2020
- 3.H.Nurmatov, N.Norxo'jayev „Musika 2-sinf uchun darslik”., Toshkent -2018
- 4.I.Axtamov “Maktab musiqa madaniyati darslarida maqom namunalarini o'rgatishni metodik takomillashtirish tajribalaridan” ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2022/6/30
- 5.ИА Кушаев, ИИУ Ахтамов “ПРОБЛЕМЫ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ЗАНЯТИЙ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА” Academy 3(66) 2021
- 6.ИИЎ Ахтамов “Музыка маданияти дарсларида халқ музыкасининг ўрни” Science and Education 3 (1) 2022-01-18